

V. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI ¹⁾



Foyda. Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 2022- yilning yanvar- noyabr oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida korxonalar va tashkilotlar tomonidan 27 400 259,6 mln. so'm miqdorda yakuniy moliyaviy natija olindi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda, foyda hajmi 870 506,7 mln. so'm yoki 3,3 foizga oshdi.

2022- yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalari

| | mln. so'm | |
|--|--------------------------------|---------------------------------|
| | <i>Foyda, zarar (+, -)</i> | <i>O'sish sur'ati, % da</i> |
| Jami | 27 400 259,6 | 103,3 |
| Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | 1 930 055,5 | 902,5 m. |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 24 412 155,5 | 92,7 |
| Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash | 1 023 918,4 | 6,0 m. |
| Qurilish | 11 870,0 | 158,0 |
| Savdo | -819,3 | - |
| Tashish va saqlash | 7 549,3 | 147,9 |
| Suv bilan ta'minlanish; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish | 1 663,3 | - |
| Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar | 1 398,6 | 80,8 |
| Professional, ilmiy va texnik faoliyat | 50,6 | - |
| Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish | 105,3 | 95,4 |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | | |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 3 347,5 | 83,0 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 8 965,1 | 2,1 m. |

¹⁾ Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

Ijoby moliyaviy natija (foyda)ning asosiy qismi ishlab chiqaradigan sanoat korxonalariga – 24 412 155,5 mln. so‘mga, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalariga – 1 930 055,5 mln. so‘mga, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalariga – 1 023 918,4 mln. so‘mga, so‘mga, Qurilish korxonalariga – 11 870,0 mln. so‘mga, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – 8 965,1 mln. so‘mga, tashish va saqlash – 7 549,3 mln. so‘mga, Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar 3 347,5 mln. so‘mga, suv bilan ta‘minlanish; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalariga – 1 663,3 mln. so‘mga, ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar korxonalariga – 1 398,6 mln. so‘mga, to‘g‘ri keladi.

Salbiy moliyaviy natija (zarar)ning asosiy qismi Savdo korxonalariga minus 819,3 mln. so‘mga, to‘g‘ri keladi.

2022-yilning yanvar- noyabr oylarini o‘tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganimizda, foydaning asosiy o‘shishi “O‘zkimyosanoat” AJ (1 354 380,0 mln. so‘m), “O‘zcharsanoat” uyushmasi (38 501,2 mln. so‘m), “O‘zdonmahsulot” AK (12 700,6 mln. so‘m), “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi (360 753,7 mln. so‘m), O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzurida Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi tarkibiga (126,0 mln. so‘m)ga kiruvchi korxonalariga to‘g‘ri keldi.

2022- yil yanvar-noyabr oylarida foydaning o‘shish sur‘ati yuqori bo‘lgan vazirlik va idoralar

| | <i>Foyda, zarar (+,-), mln. so‘m</i> | <i>O‘shish sur‘ati, % da</i> |
|---|--|----------------------------------|
| “O‘zkimyosanoat” AJ | 1 354 380,0 | 180,2 |
| “O‘zcharsanoat” uyushmasi | 38 501,2 | 147,2 |
| “O‘zdonmahsulot” AK | 12 700,6 | 125,0 |
| “ O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi | 360 753,7 | 115,9 |
| “O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi | 126,0 | 178,2 |

Foydaning pasayishi “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati – 3 190,5 mln. so‘m, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi – 26,3 mln. so‘m, yuqoridagi vazirlik va korxonalar tarkibiga kiruvchi korxonalarda kuzatilgan.

2022- yil yanvar- noyabr oylarida foydaning pasayishi yuqori bo'lgan vazirlik va idoralar


| | <i>Foyda, zarar (+,-), mln. so'm</i> | <i>O'sish sur'ati, % da</i> |
|--|--------------------------------------|-----------------------------|
| “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati | 3 190,5 | - |
| “Uzbekistan Airports” aksiyadorlik jamiyati | 915,8 | - |
| O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi | 26,3 | - |

2022-yil yanvar- noyabr oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari

mln. so'm

| | <i>Foyda, zarar (+, -)</i> | <i>O'sish sur'ati, % da</i> |
|---------------|----------------------------|-----------------------------|
| Jami | 27 400 259,6 | 103,3 |
| Navoiy sh. | 25 889 165,7 | 100,7 |
| Zarafshon sh. | -5 802,0 | - |
| G'ozg'on sh | 876,1 | 2,8 m. |
| Karmana t. | 1 387 022,4 | 179,8 |
| Konimex t. | 47 516,3 | 52,2 m. |
| Qiziltepa t. | 52 688,7 | 153,4 |
| Navbahor t. | 27 333,4 | 2,3 m. |
| Nurota t. | - | - |
| Tomdi t. | - | - |
| Uchquduq t. | - | - |
| Xatirchi t. | 1 459,0 | 49,0 |

2022- yil yanvar- noyabr oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari
(2021- yil yanvar- noyabrga nisbatan, % da)



Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Navoiy shahar 25 889 165,7 mln. so‘m (jami foydaning 94,5 foiz), Karmana tumani 1 387 022,4 mln. so‘m (jami foydaning 5,1 foiz), Qiziltepa tumani 52 688,7 mln. so‘m (jami foydaning 0,2 foiz), Konimex tumani 47 516,3 mln. so‘m (jami foydaning 0,2 foiz)ga to‘g‘ri keladi.

Zarar. 2022- yilning yanvar- noyabr oylarida 7 ta korxonalar 40 346,6 mln. so‘m zarar bilan faoliyatini yakunladi.

Zararning asosiy qismi “O‘zbekneftgaz” AJ, “Dori-Darmon” aksiyadorlik jamiyati korxonalar tarkibiga kiruvchi korxonalar hissasiga to‘g‘ri keldi.

2022- yil yanvar- noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

| | Korxonalar soni | Zarar so‘mmasi | |
|--|-----------------|----------------|-----------------------|
| | | mln. so‘m | jamiga nisbatan, % da |
| Jami | 7 | 40 346,6 | 100,0 |
| Tashish va saqlash | 1 | 38,7 | 0,1 |
| Savdo | 3 | 10 855,9 | 26,9 |
| Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish | 1 | 26,3 | - |
| Tashish va saqlash | 1 | 38,7 | 0,1 |

| | | | |
|--|---|----------|------|
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni kondisiyalash | 1 | 29 120,7 | 72,2 |
| Ishlab chikarish | 1 | 305,0 | 0,8 |

2022- yil yanvar- noyabr oylarida hududlar kesimida zarar ko‘rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

| | <i>Korxonalar soni</i> | <i>Zarar ko‘rgan korxonalarning ulushi, % da</i> | <i>Zarar so‘mmasi, mln. so‘m</i> |
|------------------|------------------------|--|----------------------------------|
| Jami | 7 | 100,0 | 40 346,6 |
| Navoiy shahar | 5 | 83,2 | 33 561,0 |
| Zarafshon shahar | 2 | 16,8 | 6 785,6 |

Korxonalar va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzdorligi holati¹⁾



2022 - yil 1-dekabr holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 9 138 066,2 mln. so‘mni tashkil qildi, shundan muddati o‘tgan – 1456 493,7 mln. so‘m yoki jami qarzdorlikning 15,9 foizi.

Muddati o‘tgan debitor qarzdorlik 2021- yil 1- dekabrga nisbatan solishtirganimizda 9,0 martaga oshgan bo‘lsa, jami debitor qarzdorlik o‘tgan yilga nisbatan 22,9 foizga oshgan.

Hududlar bo‘yicha ko‘rilganda debitor qarzdorligi yuqori Navoiy shahar 5 698 812,4 mln. so‘m (viloyat bo‘yicha jami debitor qarzdorlikning 62,4 foiz), Karmana tumani 3 185 179,0 mln. so‘m (viloyat bo‘yicha jami debitor qarzdorlikning 34,9 foiz), Navbahor tumaniga 119 193,0 mln. so‘m (1,3 foiz), Qiziltepa tumaniga 110 533,0 mln. so‘m (1,2 foiz), Xatirch tumaniga 10 697,4 mln. so‘m (0,1 foiz) to‘g‘ri keldi.

Bunga qarama-qarshi debitor qarzdorlik Konimex tumani 9 859,8 mln. so‘m (0,1 foiz), G‘ozg‘on shahri 2 992,0 mln. so‘m (0,03 foiz), Zarafshon shahri 799,6 mln. so‘m (0,01 foiz) ga pastligini ko‘rish mumkin.

¹⁾ Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jalik korxonalar, fermer va dehqon xo‘jaliklari, sug‘urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

**2022- yil 1- dekabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
muddati o'tgan debitor qarzdorlikning tarkibi**

| | <i>Jami, mln.so'm</i> | <i>undan:</i> | | | <i>Muddati o'tgan qarzdor- likning ulushi, % da</i> |
|--|---------------------------|--|--|---------------------------|---|
| | | <i>xaridor va buyurtma- chilar</i> | <i>etkazib beruvchilarga va pudratchilarga berilgan avanslar</i> | <i>ichki idoraviy</i> | |
| Jami | 1 456 493,7 | 1 456 295,7 | 34,7 | - | 100,0 |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 106 652,2 | 106 578,4 | - | - | 7,3 |
| Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash | 1 318 666,7 | 1 318 666,7 | - | - | 90,5 |
| Qurilish | 5 599,7 | 5 594,5 | - | - | 0,4 |
| Tashish va saqlash | 1 042,4 | 923,4 | 34,7 | - | 0,1 |
| Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar | 20 110,5 | 20 110,5 | - | - | 1,4 |
| Professional, ilmiy va texnik faoliyat | 1 224,0 | 1 224,0 | - | - | 0,1 |
| Suv bilan ta'minlash; kanalizasiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilish | 3 198,2 | 3 198,2 | - | - | 0,2 |

Monitoring qilinadigan xo'jalik birlashmalarining 2022- yil 1- dekabr holatiga jami debitor qarzdorligi 7 762 066,2 mln. so'm yoki viloyat bo'yicha jami qarzdorlikning 84,9 foizini tashkil qildi.

Muddati o'tgan debitor qarzdorlikni 2021-yil 1- dekabrga nisbatan solishtirganimizda 10,1 martaga oshgan.

2022- yil 1- dekabr holatiga kreditor qarzdorlikning umumiy hajmi 5 390 565,2 mln. so'm, undan muddati o'tgan – 60 941,7 mln. so'm yoki jami kreditor qarzdorlikning 1,1 foizni tashkil etdi.

Muddati o'tgan kreditor qarzdorlikni 2021-yil 1-dekabrga nisbatan solishtirganimizda 11,7 foizga oshgan bo'lsa, jami kreditor qarzdorlik o'tgan yilga nisbatan 22,3 foizga oshgan.

Monitoring qilinadigan xo'jalik birlashmalarining 2022- yil 1- dekabr holatiga jami kreditor qarzdorligi 4 134 511,9 mln. so'm yoki viloyat bo'yicha jami qarzdorlikning 76,7 foizni tashkil qildi, shu jumladan muddati o'tgan – 52 082,1 mln. so'm yoki mos ravishda 7,0 foizga oshgan.

**2022- yil 1- dekabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
muddati o'tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi**

| | <i>Jami, mln. so'm</i> | <i>undan:</i> | | | | | <i>Mudda- ti o'tgan qarzdor- lik-ning ulushi, % da</i> |
|--|----------------------------|---|-----------------------------|---|---------------------------|--------------------------------------|--|
| | | <i>etkazib beruvchi lar va pudrat- chilarga</i> | <i>olingan avanslar</i> | <i>davlat maqsadli fondlariga to'lovlar</i> | <i>ichki idoraviy</i> | <i>mehnat ga haq to'lash</i> | |
| Jami | 60 941,7 | 60 941,7 | - | - | - | - | - |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 54 669,3 | 54 669,3 | - | - | - | - | - |
| Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash | 5,6 | 5,6 | - | - | - | - | - |
| Tashish va saqlash | 4,2 | 4,2 | - | - | - | - | - |
| Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar | 4 547,6 | 4 547,6 | - | - | - | - | - |
| Suv bilan ta'minlash; kanalizasiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilish | 1 715,0 | 1 715,0 | - | - | - | - | - |

2022- yil 1- dekabr holatiga jami kreditor qarzdorlikning debitorlikdan kamayishi 3 747 501,0 mln. so'mni tashkil qildi.

Hududlar bo'yicha ko'rilganda kreditor qarzdorlik kamayishi Karmana tumani 2 281 017,5 mln. so'm (28,4 foiz), Navoiy shahar 1 513 325,5 mln. so'm (73,4 foiz) , G'ozg'on shahri 1 971,6 mln. so'm (34,1 foiz) ga to'g'ri keldi.

